

## TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Badalov Kamoliddin Rahmat o`g`li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o`qituvchisi

[kamoliddinb24@gmail.com](mailto:kamoliddinb24@gmail.com)

+998996776515

**Annotatsiya:** Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik aspektlari haqidagi fikr mulohazalar berilgan. Xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so`zlar:** Vosita, o`qituvchi, innovatsiya, paradigma, bilim, uzluksiz, pedagogika.

An`naviydan shaxsga yo`naltirilgan ta`lim paradigmalarining almashinuvi sharoitlarida hamda davlat ta`lim standartlariga muvofiq oliy pedagogik OTM oldida mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish, ularni nafaqat mutaxassis, boshlang`ich maktabda o`qitiladigan kompleks fanlarning chuqur bilimdoni sifatidagina emas, balki psixologik-pedagogik fanlar innovatsiyalari sohasida yangi yutuqlarga oson yo`nalish topa oladigan, maktab o`quv-tarbiyaviy jarayonlarini loyihalashtira oladigan kasb egasi qilib tayyorlash muammosi turadi. (E.V.Bondarevskaya, K.V.Bochkina, V.I.Danjchuk, V.V.Zaytsev, I.A.Kolesnikova, V.M.Monaxov, A.M.Saranov, K.Sergeev, V.V.Serikov, V.T.Fomenko, Ye.N.Shiyanov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar).

Bu yerda innovatsion jarayonlar komponentarini topishgina emas, balki pedagogik ta`lim sohasida davlat siyosati asosiy ko`rsatkichlarini o`zida jamlashi shart bo`lgan uzluksiz va o`zaro bir-birini to`ldiruvchi texnologik yaxlitlikni o`zlashtirish juda muhim[1-3].

Hozirgi kunda tadqiqotning uchta asosiy yo`nalishi va pedagogik ta`lim texnologiyalari ishlab chiqilgan: birinchisi – o`qituvchi kadrlarni o`qitish texnologiyalashtirilishi asoslari boyicha fundamental tadqiqotlari; ikkinchisi – pedagogik OTMlarida mutaxassislarni aniq o`qitish texnologiyalarini ishlab chiqish; uchinchisi – alohida fanlar mualliflik ta`lim texnologiyalarini yaratish.

Oliy pedagogik ta`limni isloh qilish va qayta loyihalashtirish, shuningdek, ta`lim jarayonlarini standartlashtirish sharoitlarida, mutaxassis (jumladan, boshlang`ich sinflar o`qituvchilari)ni tayyorlash natijalari kafolatini ta`minlovchi vositalarni izlash muammolari yuzaga keladi.

Vositalarni tahlil qilish asosida – texnologik yondashuv eng samarali “instrumental va metodologik vositalar pedagogika va metodika pedagogik fanlar va

amaliyotda rivojlanishni saqlash sharoitlarida shiddat bilan yangilanishi” degan xulosaga keldik.

Tadqiqotimiz doirasida texnologik yondashuv ikki funktsiyalarda namoyon bo'ladi: 1) bo'lajak o'qituvchining didaktik shakllanishiga yo'naltirilgan o'quv jarayonini qurish va pedagogik tizimlar holatini tahlil qilish; 2) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik-metodik rivojlantirish modelini loyihalashtirish uchun o'quv jarayonini texnologik qurish loyihasini amalga oshirish[4-8].

Mazkur bo'lim maqsadi quyidagilardan iborat:

- 1) “pedagogik texnologiya” tushunchasi mohiyatini belgilash;
- 2) uning roli va talaba shaxsi alohida xususiyatlarini shakllantirish jarayoni amal qilish meyoriy sharoitlari;
- 3) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kompetentligini didaktik-metodik rivojlantirish uchun vositalarga mos texnologik yondashuvni tanlash.

“Texnologiya” – grekcha so'z bo'lib (techne – san'at, mahorat, malakalilik valogos – bilim), shu tariqa, mazkur tushunchaning aslmohiyati“ mahorat haqida bilim”, ya'ni didaktik faoliyat ixtisosligini ifodalovchi bilimlarni anglatadi. “Pedagogik” so'zi mazkur toifaning didaktik taalluqliligini ifodalaydi.

“*Pedagogik texnologiya*” tushunchasi mazmun-mohiyatini, uning tuzilmasini o'rganishga qator tadqiqotchilar: V.P.Bespalko, V.V.Guzeev, V.V.Bogolyubov, M.V.Klarina, V.M.Monaxova, V.Y.Pityukova, A.Y.Savelev, N.F.Talizina, A.I.Uman, F.Yanushkevich va boshqalar o'z tadqiqotlarini bag'ishlaganlar. Pedagogik texnologiyadan foydalanish muammosini o'rganishga olimlar: Platon, Aristotel, A.Disterveg va boshqalar; keyinchalik Y.A.Komenskiy ta'limda shakllanuvchi tushuncha va jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan tasdiqlovchi tadqiqotlarni amalga oshirganlar; J.Lokk, o'qitishda ma'lum odat va xulq-atvorni o'zlashtirish orqali jarayonlarni shakllantirish; I.F.Gerbert, o'qituvchi ishining meyorlari tizimini belgilovchilar: barcha qismlari va hajmini bayon etishi, tushuntirishi zarur bo'lgan fanni ishlab chiqib, o'rganish; darsga puxta tayyorlanib, batafsil ishlab chiqish; o'quvchilar talablari va imkoniyatlariga muvofiq o'qitish rejasini belgilashga harakat qilish hisoblanadi[9-13].

K.D.Ushinskiy va A.S.Makarenko o'qituvchining pedagogik mahorati texnologiya darajasiga ko'tarilishi mumkin deb hisoblaganlar.

G.Andersen, E.Kelli, A.Maslou, K.Rodjers pedagogik texnologiyani o'qituvchida o'quvchilarga ta'sir etish usullari va muvaffaqiyatli o'zaro muosabat orqali yuzaga keladigan xususiyat deya ta'kidlaganlar. Ular XX asrning 50-70 yillarida “pedagogik texnologiya” tushunchasini o'qituvchining shaxsiy xususiyati, o'zini tutishi, xatti-harakati uslubi, ya'ni o'quv jarayonining sub'ektiv omiliga kiritganlar.

Tadqiqotlarning keyingi qadami “pedagogik texnologiya” tushunchasi, ta’limni dasturlashtirish bo’yicha tadqiqotlar bo’ldi (S.L.Press, B.Skinner va boshqalar), ularga ta’lim samarasini oshiruvchi davriy ta’sir orqali harakatlar tizimi mavjudligini o’rganish taalluqlidir.

Tushunchani ta’riflashga amerikalik olimlar (R.Berne, B.Blum, O.Richarde va boshqalar) hissa qo’shdilar, ular pedagogik texnologiyani nafaqat ta’limda dasturlashtirilgan va texnik vositalarni qo’llanilishi, balki maqsadlar tizimini ilgari surish, qarorlarni tanlash, pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish, shuningdek, o’quv jarayoni loyahasini yaratishni nazarda tutuvchi jami pedagogik fikrlar strategiyasi bilan uyg’unlashtirish zarurligini ta’kidlaganlar. D.Pratt o’qitish tizimi jarayonlarini belgilab bergan[14].

A.K.Gastev, A.K.Landa, S.Anderson, M.Meyer va boshqalar “pedagogik texnologiya” toifasi mahiyatining algoritmik, texnik va analitik tashkil etuvchi ushunchalar tahliliga e’tibor qaratgan. Jumladan, S.Anderson, M.Meyer, R.de Kiffer, F.Uitvort va boshqalar pedagogik texnologiya – bu tovushlarni yozish va tasvirlar proektsiyasi, shuningdek, usullar va ularni o’quv jarayonida qo’llashni ifodalash vositasidir deya ta’kidlaganlar.

O’quv jarayonini ishlab chiqishda pedagogik texnologiyani qurish determinatsiya jarayonlarini optimallashtirishdan foydalanishni o’rganganlar (Dj.S.Bruner, Y.K.Babanskiy va boshqalar). Boshqa tadqiqotlarda «pedagogik texnologiya» tushunchasi tahlilida (P.Y.Galperin, N.F.Talizina, A.T.Molibog, F.Yanushkevich va boshqalar) o’quv maqsadlari natijalariga erishish usullarini qurishga, ularning ratsionalligini belgilash, holatini tashhis qilish, material mazmunini tanlash, nazorat-korreksion ishlar va o’quv jarayonini tashkil etishga ratsional usullarining uzluksizligini belgilashga e’tibor qaratganlar[15].

S.I.Arangel’skiy pedagogik texnologiyalar tushunchasiga o’quv jarayonini kibernetikboshqarish g’oyalarini kiritadi, ular o’qitish jarayonining har bir ahamiyatli muhim bosqichida boshqaruvdagi har tomonlama tahlilidan tashkil topadi.

Pedagogik texnologiya o’qituvchi va o’quvchi shaxsiga (E.V.Bondarevskaya, V.V.Serikov) va o’quv jarayoniga (V.M.Monaxov) yo’naltirilgan bo’lishi mumkin. O’qituvchi va o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan pedagogik texnologiyada o’quv-tarbiyaviy jarayon sub’ektlarining o’zaro pedagogik hamkorligi tizimi, mazmunni tasavvur etish usullari (berilgan, oyinli yoki dialogli) natijalarga kirishish texnikasi aks etadi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining didaktik-metodik kompetentligi savodxonlik, ijodkorlik, san’atkorlik darajalari autodidaktik boshqaruv harakatlari bilan monologik va dialogik nutqini o’stirish asosida aniqlangan;

Hozirgi vaqtda “pedagogik texnologiya” fenomeni kontseptual darajada (pedagogika fanining bir yo’nalishi sifatida, ta’lim jarayonlarini ishlab chiqishga imkon beruvchi maqsadlar, mazmun va o’qitish metodlarini o’rganadigan va rivojlantiruvchi soha sifatida), shuningdek nazariy va amaliy (jarayonlar operatsiyalari mantig’i va loyihani amalga oshirishning tavsifi) sifatida qaraladi.

V.P.Bespalko pedagogik texnologiya tarkibiy qismlarini “loyihalashtirilgan pedagogik tizimning barcha elementlarida bir-biriga bog’liq bo’lgan mazmunli o’zgarishlar” sifatida belgilaydi, bu maqsadli va tashkiliy birlikning har qanday texnologiyasida (jumladan, ta’lim texnologiyasida) mavjudligini ko’rsatgan[15-21].

Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim kontseptsiyasi ta’limning muqobil variantlari sharoitlarida talabalarning didaktikkompetentliklarini shakllantirish uchun pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiya shaxs sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayonini tizimli loyihalash mohiyati va mexanizmlarini aniqlashtirish sifatida tushunilishi mumkin. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchi shaxsining yetakchi integral didaktik xususiyati – didaktik-metodik kompetentlik; didaktik, pedagogik fikrlash qobiliyati mavjudligi. Mazkur qobiliyatlardan pedagogik kuzatuvchanlik, o’qitish va tarbiyalash uchun material tanlash ko’nikmasi, refleksiya, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tahlil qilish ko’nikmasi va boshqalar bog’liq bo’ladi[22].

S.B.Elkanov ta’kidlaganidek, pedagogik fikrlash, fikrlash jarayonlari va operatsiyalari bilan cheklanmaydi. U pedagogik xatti-harakat motivatsiyalari, uning strategiyasi, taktikasi va h.k. sohalarini qamrab oladi, u dialektik, majmuaviy hisoblanadi.

«Didaktik-metodik kompetentlik» tushunchasining talqinida turli yo’nalishlar ifodalangan, o’qituvchi didaktik kompetentligi asosiy xususiy ko’rinishlari aniqlangan. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash xususiyatlarini va ularning didaktik faoliyatlarini hisobga olgan holda didaktik kompetentlikning xususiy ko’rinishi didaktik-metodik kompetentlik tanlovi asoslangan.

2. Didaktik-metodik kompetentlikning gnoseologik, insonparvarlik, loyihaviy, me’riy va refleksiv kabi funktsiyalari ifodalangan.

3. Didaktik-metodik kompetentlik tuzilishi o’zaro bog’liq sohalar tizimi sifatida ochib berilgan (motivatsion-nazariy, amaliy va tadqiqotchilik-refleksiv). Didaktik-metodik kompetentlik motivatsion-nazariy sohasida asosiy komponentlar bo’lib kognitiv va mazmunli-operatsion komponentlar hisoblanadi. Amaliy sohada asosiy bo’lib motivatsion va operatsion-faoliyatli komponentlar xizmat qiladi. Tadqiqotchilik-refleksiv sohada refleksiv-baholash va individual-ijodiy komponentlar.

4. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi rivojlanganligi darajasini ajratishda asosiy mezon yetakchi sohalar va struktura

komponentlari shakllanganligi darajasi hisoblanadi. Mazkur kompetentlikning barcha sohalari rivojlanishining motivatsion-qadriyatli komponentlari darajalarini aniqlash uchun mezon bo'lib shaxs sifatleri bo'lib motivlar va intilishlarning ifodalanishining darajasi va sur'ati xizmat qiladi.

5. Didaktik-metodik kompetentlik rivojlanganligi darajalarini tashhis qilish metodlari va metodikalari majmui ishlab chiqildi, ta'kidlovchi tajriba-sinov vaqtida uni o'tkazish asosida sohalari ichidagi alohida komponentlar va umumdidaktik-metodik kompetentlik rivojlanishi darajalari ajratildi[23-25].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 160-165.
2. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A CONCEPTUAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE DIDACTIC-METHODICAL COMPETENCE OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 160-164.
3. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. *Open Access Repository*, 4(02), 141-148.
4. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQUIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In *E Conference Zone* (pp. 35-39).
5. Badalov, K., & Xolmurodova, N. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINI DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Conferencea*, 63-66.
6. BADALOV, K. (2022, April). TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS. In *E Conference Zone* (pp. 214-217).
7. Тожиев, Х. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ, КОТОРЫЕ ПРИМЕНЯЕТ НАЧАЛЬНЫЙ КЛАСС В ИЗУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(2), 3-9.
8. Baxtiyorovich, T. H., Javohir G'aybullo o'g, Z., & Rahmat o'g'li, B. K. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINING INFORMATIKA DARSLARIDA AXBOROTNI TUZILMALASHTIRISH MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Journal of new century innovations*, 40(2), 66-70.
9. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). TALABALARNING RATSIONAL FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH YO 'LLARI. *Journal of new century innovations*, 40(2), 71-75.
10. Rahmat o'g'li, B. K., Baxtiyorovich, T. H., & Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHISINING DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGI SHAKLLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 178-182.
11. Bobonazarovich, A. Z. (2021). THE ROLE AND INFLUENCE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE DEVELOPMENT OF RESPECT FOR NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN CHILDREN IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *European science*, (4 (60)), 53-56.

12. Алмарданов, Ж. Б. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 479-481.

13. Baxtiyorovich, T. H. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO'NIMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 153-159.

14. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. *Conferencea*, 105-113.

15. Baxtiyorovich, H. T. (2022). OO 'QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI. *Conferencea*, 139-147.

16. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(10), 7-9.

17. Тожиев, Х. Б., & Бадалов, К. Р. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ МЕТОДОВ, КОТОРЫЕ ПРИМЕНЯЕТ НАЧАЛЬНЫЙ КЛАСС В ИЗУЧЕНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(2), 3-9.

18. Алмарданов, Ж. Б. (2020). Механизмы воспитания уважения к национальным и культурным ценностям у детей в образовательной среде. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 92-94.

19. Алмарданов, Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287-289.

20. Алмарданов, Ж. Б. (2023). БОЛАЛАРНИ МИЛЛИЙ ВА МАДАНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ҲУРМАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 287-289. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4272>

21. Bobonazarovich, A. J. R. (2023). Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalarda milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 23-30.

22. Abduraimovna, D. S. (2023). TYPES OF REFLEXIVE LEARNING TECHNOLOGIES IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM. *Open Access Repository*, 4(03), 31-40.

23. Уралова, М. (2023). ВО 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).

24. Уралова, М. (2023). ВО 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINIF O 'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).

25. Уралова Мухабата Санджаровна. (2023). Подготовка будущих учителей начальных классов к творчески-методической деятельности на основе интегративного подхода. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 390-393.